

**ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ЖУРНАЛИ**
6 ЖИЛД, 9 СОН

**ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ
ИССЛЕДОВАНИЙ**
ТОМ 6, НОМЕР 9

**JOURNAL OF LAW
RESEARCH**
VOLUME 6, ISSUE 9



Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
д.ю.н., проф.
(Doctor of Law, Professor)
Абдурасулова Қумринисо Раимқуловна

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
д.ю.н., доцент
(Doctor of Law, Associate professor)
Файзиев Шохруд Фармонович

Ҳуқуқий тадқиқотлар журнали таҳририй маслаҳат кенгаши
редакционный совет журнала Правовых исследований
Editorial Board Journal of Law research

12.00.01 - Давлат ва ҳуқуқ назарияси ва тарихи. Ҳуқуқий таълимотлар тарихи / Теория права и государства, История правовых учений / Theory of law and state, History of legal doctrines

ю. ф. д., проф. Ҳалимбой Бобоев
ю. ф. д., проф. Аҳмедшаева Мавлюда
ю. ф. д., проф. Муҳиддинова Фирюза
ю. ф. д., проф. Адилходжаева Сурайё
ю. ф. д., проф. Сатторов Абдуғаффор

Yosuke Shamoto (Japan)
д.ю.н., проф. Артур Гамбарян
(Республика Армения)

12.00.02 - Конституциявий ҳуқуқ. Маъмурий ҳуқуқ. Молия ва божхона ҳуқуқи / Конституционное право; административное право; финансовое право / Constitutional Law; administrative law; financial right

ю. ф. д. Гулчехра Маликова
ю. ф. д. Хусанов Озод
ю. ф. н. Хван Леонид Борисович
ю. ф. д. Силиманова Светлана

Sung Un Lee (South Korea)
д.ю.н., доц. Пешкова Христина Вячеславовна
(Российская Федерация)

12.00.03 - Фуқаролик ҳуқуқи. Тадбиркорлик ҳуқуқи. Оила ҳуқуқи. Халқаро хусусий ҳуқуқ / Гражданское право; предпринимательское право; семейное право; международное частное право / Civil law; Business law; family law; Private international law

юримдик фанлар доктори, профессор
Ўзбекистон Республикасида хизмат
кўрсатган юрист Окюлов Омонбой,
Рузиев Рустам, Рузиназаров Шухрат,
Шомухамедова Замира, Баратов
Миродил, Бобокул Тошев

Dr. Ahmad Issa Altweissi (Jordan)

12.00.04 - Фуқаролик процессуал ҳуқуқи. Хўжалик процессуал ҳуқуқи. Ҳакамлик жараёни ва медиация / Гражданское процессуальное право; хозяйственное процессуальное право, арбитражный процесс и медиация / Civil Procedure Law; Economic procedural law, arbitration process and mediation

юримдик фанлар доктори, профессор,
Ўзбекистон Республикасида хизмат
кўрсатган юрист Эсанова Замира
Нормуродовна, Мамасидиков Музаффар

Jason A. Cantone Federal court center (USA)

12.00.05 - Мехнат ҳуқуқи. Ижтимоий таъминот ҳуқуқи / Трудовое право; право социального обеспечения / The Labor law; Social security law

ю.ф.д., проф. Усманова Муборак Акмалхановна
ю.ф.н., доц. Гасанов Михаил Юриевич
ю.ф.н., доц. Сатторова Гулноза
ю.ф.н., доц. Муродова Гулнора

д.ю.н., проф. Денисов Глеб
(Российская Федерация)

12.00.06 - Табиий ресурслар ҳуқуқи. Аграр ҳуқуқ. Экологик ҳуқуқ / Природоресурсное право; аграрное право; экологическое право / Natural resource law; Agrarian law; Environmental law

Ю.ф.д., проф. Файзиев Шухрат Хасанович,
Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган
юрист ю.ф.н, доц. Скрипников Николай
Кузмич, ю.ф.д., проф. Усмонов Муҳаммади
Бахридинович, ю.ф.д., проф. Холмўминов
Жума, ю.ф.д., проф. Жўраев Юлдаш
Ачилович

Долгополов Кирилл Андреевич
(Российская Федерация)

12.00.07 - Суд ҳокимияти. Прокурор назорати. Ҳуқуқни муҳофаза қилиш фаолиятини ташкил этиш. Адвокатура / Судебная власть. Прокурорский надзор. Организация правоохранительной деятельности. Адвокатура / The judicial authority. Prosecutor supervision. Organization of law enforcement activities. Advocacy

Ю.ф.д., проф. Пўлатов Бахтиёр Халилович,
Ю.ф.д. Саломов Баҳром Саломович,
ю.ф.д., проф. Салаев Нодирбек Сапарбаевич
(Тошкент давлат юридик университети)

James V. Eaglin Федерал суд Маркази (АҚШ)
д.ю.н., проф. Кайрат Осмоналиев (Қирғизистон
Республикаси) к.ю.н., доц. Сергей Шошин
(Российская Федерация), д.ю.н., проф. Алексей
Кибальник (Российская Федерация), д.ю.н., проф.
Кудрявцев Владислав Леонидович (Российская
Федерация)

**12.00.08 - Жиноят ҳуқуқи. Криминология. Жиноят-ижроия ҳуқуқи /
Уголовное право и криминология; уголовно-исполнительное право /
Criminal law and criminology; Criminally-executive law**

Ю.ф.д., проф. Кабулов Рустам, Ўзбекистон
Республикасида хизмат кўрсатган юрист,
ю.ф.д., проф., Рустамбаев Мирзаюсуп
Ҳакимович, ю.ф.д., проф. Ражабова Мавжуда
Абдуллаевна, ю.ф.д., проф. Зуфаров Рустам
Ахмедович, ю.ф.д., проф. Тахиров Фарход,
ю.ф.д., проф. Исмоилов Исомиддин,

Matthew Light (Canada), проф. Юлдошев Рифат
Раҳмаджонович (Республика Таджикистан),
д.ю.н., проф. Елене Антонян Александровна
(Российская Федерация), д.ю.н., проф.
Джансараева Рима Ернатовна (Республика
Казахстан), Кирил (Российская Федерация)

**12.00.09 - Жиноят процесси. Криминалистика. тезкор-қидирув ҳуқуқ ва суд экспертизаси /
Уголовный процесс, криминалистика, оперативно-розыскное право и судебная экспертиза / Criminal
procedure, criminalistics, operative-search law and judicial examination**

Ю.ф.д., проф. Иноғомжонова Зумратхон
Фатхуллаевна, ю.ф.д., проф. Пўлатов Юрий
Сайфиевич, ю.ф.д. Мухиддинов Фахриддин,
ю.ф.д., проф. Тўлаганова Гулчехра Заҳитовна,
ю.ф.д. Миразов Даврон

Kevin Curtin (USA), Jurgen Maurer (Germany),
д.ю.н., проф. Стойко Николай Генадьевич
(Российская Федерация), Проф. Рыжаков
Александр Петрович (Российская Федерация),
д.ю.н., проф. Зайниддин Искандаров (Республика
Таджикистан), Проф. Сергей Пен (Республика
Казахстан), доц. Алексей Пурс (Республика
Беларусь)

12.00.10 - Халқаро ҳуқуқ / Международное право / International law

ю.ф.д., проф. Исмоилов Баҳодир,
ю.ф.д., проф. Маткаримов Гулчехра,
ю.ф.д., проф. Юлдашева Говхержан

Alexander Trunk (Germany)

Мусаҳҳих: Нурмуҳаммад Ҳамидов

Дазайн - саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Кудрявцев Игорь Владимирович ПОНЯТИЕ И СУЩНОСТЬ СТРАТЕГИЧЕСКОГО ПАРТНЕРСТВА МЕЖДУ ГОСУДАРСТВАМИ.....	5
2. Абдуллаева Мафтуна Мурот қизи КОНСТИТУЦИЈАВИЙ СУД ТОМОНИДАН ҲУҚУҚ НОРМАЛАРИНИ ШАРҲЛАШНИНГ АЙРИМ НАЗАРИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ.....	16
3. Исломқулова Шохсанам Ваҳобжон қизи ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИДА МЕҲНАТ МУНОСАБАТЛАРИ. ФУҚАРОЛИК ВА МЕҲНАТ ШАРТНОМАЛАРИНИНГ ФАРҚЛАРИ.....	25
4. Хаджаева Саодат Анваровна ЭЛЕКТРОН МЕҲНАТ ШАРТНОМАСИНИНГ АҲАМИЯТИ.....	33
5. Шокиров Ойбек Азизжон угли ТРУДОВЫЕ СПОРЫ И ПОРЯДОК ИХ РАЗРЕШЕНИЯ: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ.....	41
6. Abdusamiyeva Dilrobo Abduvaxob qizi POSTPENITENSIAR RESOTSIALIZATSIYA MAZMUNI VA UNING IJTIMOIIY ZARURATI.....	50
7. Отегенова Луиза Жолдасбаевна ҚИЛМИШНИНГ ЖИНОЙЛИГИНИ ИСТИСНО ҚИЛУВЧИ ҲОЛАТЛАР ТУШУНЧАСИ ВА УМУМИЙ ТАВСИФИ.....	57
8. Базарова Дилдора Бахадировна ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА ШАХС ҲУҚУҚЛАРИ ПРОЦЕССУАЛ КАФОЛАТЛАРИНИНГ НАЗАРИЙ ВА ҚОНУНЧИЛИК АСОСЛАРИ.....	65
9. Джураева Захро Тулкуновна ЎЗБЕКИСТОННИНГ БМТ БОШ АССАМБЛЕЯСИНИНГ 76-ЧИ СЕССИЯДАГИ ТАШАББУСЛАРИ.....	73
10. Камиллов Ойбек Хамиджонович ГЛОБАЛЬНЫЕ И РЕГИОНАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В ОБЛАСТИ МИГРАЦИИ, ДЕНЕЖНЫЕ ПЕРЕВОДЫ И ИХ ЗНАЧЕНИЯ В НАЦИОНАЛЬНОМ СЕГМЕНТЕ.....	80
11. Хамдамова Фируза Уразалиевна, Джураева Захро Тулкуновна ВЫПОЛНЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ ПО ИСКОРЕНЕНИЮ БЕДНОСТИ И НИЩЕТЫ.....	89
12. Nosirov Barxayot Murodjonovich ShNT – XALAQARO – HUKUMATLARARO MINTAQAVIY TASHKILOT SIFATIDA: MARKAZIY OSIYODA XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDAGI ROLI.....	96


ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ JOURNAL OF LAW RESEARCH

12.00.08-УГОЛОВНОЕ ПРАВО. КРИМИНОЛОГИЯ.
УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

Abdusamiyeva Dilrobo Abdavaxob qizi,
Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi
E-mail: dilraboabdusamiyeva@gmail.com

POSTPENITENSIAR RESOTSIALIZATSIYA MAZMUNI VA UNING IJTIMOIV ZARURATI

For citation: Abdusamiyeva Dilrobo Abdavaxob kizi. THE CONTENT AND SOCIAL NECESSITY OF POSTPENITENTIARY RESOCIALIZATION. Journal of Law Research. 2021, 6 vol., issue 9, pp. 50-56

 <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2021-9-6>

ANNOTATSIYA

Maqolada muallif tomonidan jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarning postpenitensiar resotsializatsiyasi bilan bog'liq masalalar, postpenitensiar resotsializatsiya tushunchasi, uning huquqiy asoslari, mazmuni hamda ijtimoiy zarurati tahlil qilingan. Shuningdek, sobiq mahkumlarning qayta ijtimoiylashuvi bilan bog'liq masalalarni amalga oshiruvchi tegishli tuzilmalar va ularning faoliyati doirasidagi kamchiliklar, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda jazoni o'tab chiqqach ularning oldilarida vujudga keladigan asosiy muammolar tahlil etilgan hamda mazkur muammolarni bartaraf etish va postpenitensiar tizimni takomillashtirish yuzasidan ayrim takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: jazoni ijro etish muassasasi, jazo o'tab chiqqan shaxs, resotsializatsiya, penitensiar tizim, postpenitensiar tizim, huquqbuzarliklar profilaktikasi, uy-joy muammosi, ishga joylashish muammosi

Абдусамиева Дилробо Абдувахоб кизи,
Преподаватель Ташкентского государственного
юридического университета
E-mail: dilraboabdusamiyeva@gmail.com

СОДЕРЖАНИЕ ПОСТ-ПЕНИТЕНЦИАРНОЙ РЕСОЦИАЛИЗАЦИИ И ЕЕ СОЦИАЛЬНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ

АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрены вопросы, связанные с постпенитенциарной ресоциализацией лиц, освобожденных из учреждений исполнения наказания, анализируется понятие постпенитенциарной ресоциализации, ее правовые основы, содержание и социальная необходимость. Также были проанализированы недостатки в соответствующих структурах и сферах их деятельности, осуществляющих вопросы, связанные с ресоциализацией бывших осужденных, основные проблемы, возникающие перед лицами, лишенными свободы, после

отбытия наказания в установленном законом порядке, и представлены некоторые предложения по устранению этих проблем и совершенствованию постпенитенциарной системы.

Ключевые слова: учреждения по исполнению наказаний, лицо, отбывающее наказание, ресоциализация, пенитенциарная система, постпенитенциарная система, профилактика правонарушений, жилищная проблема, проблема трудоустройства

Abdusamiyeva Dilrobo Abduvaxob kizi,
Teacher of Tashkent State University of Law
E-mail: dilraboabdusamiyeva@gmail.com

THE CONTENT AND SOCIAL NECESSITY OF POSTPENITENTIARY RESOCIALIZATION

ANNOTATION

The article deals with issues related to the post-penitentiary resocialization of persons released from penal institutions, analyzes the concept of post-penitentiary resocialization, its legal basis, content and social necessity. They also analyzed the shortcomings in the relevant structures and areas of their activities that deal with issues related to the re-socialization of former convicts, the main problems faced by persons deprived of their liberty after serving their sentences in accordance with the procedure established by law, and presented some proposals for eliminating these problems and improving the post-penitentiary system.

Keywords: penitentiary institution, person serving a sentence, re-socialization, penitentiary system, post-penitentiary system, crime prevention, housing problem, employment problem.

Bugungi kunda jahon miqyosida jinoyatchilik profilaktikasi muammosi tobora global va dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Jinoiy javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash bilan bir qatorda tayinlangan jazoning ijro etilishi hamda belgilangan jazo muddati o'tab bo'linganidan so'ng mahkumlar ijtimoiy moslashuvining oqilona yo'lga qo'yilishi jinoyatchilik profilaktikasida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan, mamlakatimizda penitensiar va postpenitensiar resotsializatsiya tizimini isloh qilish zarurati mavjud.

So'nggi yillarda jazoni ijro etish tizimini takomillashtirish bo'yicha qator choralar qabul qilindi. Xususan, mahkumlarning huquqlariga so'zsiz rioya etish, ularning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, ushbu sohada korrupsiya va mansab vakolatini suiiste'mol qilish holatlariga barham berish, jazoni ijro etish muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha kompleks tadbirlar amalga oshirildi. Bundan tashqari, jazoni ijro etish tizimida ta'lim muassasalarining faoliyati tubdan isloh qilindi, mahkumlarni o'qitish jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalar joriy etildi, birinchi navbatda, voyaga yetmaganlar va kasb-hunarga ega bo'lmagan mahkumlarni kasbiy tayyorlash mexanizmlari qayta ko'rib chiqildi. Shu bilan birga, mahkumlarning mehnat bilan bandligini samarali ta'minlash maqsadida jazoni ijro etish muassasalarida ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar qabul qilinmoqda.

Ma'lumki, mazkur islohotlar, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlardan ko'zlangan maqsad jinoyat sodir etgan shaxslarni axloqan tarbiyalash hamda ular tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olishdir. Lekin, afsuski, jinoyat-ijroiya sohasida bu va boshqa bir qator keng ko'lamli islohotlar olib borilayotgan bo'lishiga qaramasdan mamlakatimizda muqaddam sudlangan shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etish ko'rsatkichi hamon yuqoriligicha qolmoqda. Buni quyidagi statistik ma'lumotdan ham ko'rishimiz mumkin. Ya'ni birgina Toshkent shahar hududida 2019-yilda 6718ta, 2020-yilda 8657 ta jinoyat qayd etilgan. Shundan muqaddam sudlangan shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etish ko'rsatkichi 2019-yilda 456 tani tashkil etgan. 2020-yilga kelib bu tendensiya 30,26% ga o'sgan, ya'ni 594 taga yetgan.

Ushbu omillar penitensiar hamda postpenitensiar tizimlarini takomillashtirish va ularning profilaktik samaradorligini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlarni olib borish,

sohadagi islohotlarni ilmiylik prinsipiga rioya etgan holda amalga oshirish, ya'ni rivojlangan davlatlarning, O'zbekiston sharoitiga mos keluvchi ilg'or tajribalarini ilmiy jihatdan asoslantirgan holda joriy etish lozim.

Jinoyat qonunchiligiga ko'ra, jazodan ko'zlangan maqsad mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to'sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olishdir [1]. Mahkumlarni axloqan tuzatish hamda ijtimoiy hayotga moslashtirish mahkumlar jazoni ijro etish muassasalarida bo'lgan paytdan boshlanadi. Mahkumni axloqan tuzatish – unda qonunga itoatkor xulq-atvorni, insonga, jamiyatga, mehnatga, jamiyat turmushi qoidalari va an'analariga hurmat munosabatini shakllantirishdan iboratdir [2].

Jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxsning jazoni o'tash muddati tugashiga uzog'i bilan uch oy qolganda uni ozodlikka chiqarishga tayyorlash, mehnat va turmushda o'rnatishga bo'lgan ehtiyojini aniqlash, uning muassasadan ozod bo'lgandan keyingi huquqlari va majburiyatlarini tushuntirish maqsadida mahkum bilan tarbiyaviy ish olib boradi. Lekin jazoni o'tab chiqqan mahkumni jamiyatga to'la qo'shib ketishi uchun mazkur ishlarining o'zi yetarli bo'lmay, endi ularning oldida ishga joylashish, uysizlarining esa turar joy topish kabi bir qancha muammolari paydo bo'ladi. Sobiq mahkumlarga mazkur muammolarni hal etishga ko'maklashish uchun hokimiyatlar qoshidagi ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish markazlari, Ichki ishlar organlarining Probatsiya xizmatlari tashkil etilgan. Mazkur markaz va xizmatlarning sobiq mahkumlar oldida vujudga keladigan muammolarni hal etishga ko'maklashishga, ular tomonidan qayta jinoyatlar sodir etilishini oldini olish maqsadida nazorat qilishga, axloqan tuzatishga, shuningdek ularni ijtimoiy hayotga qayta moslashtirishga qaratilgan faoliyati postpenitensiar resotsializatsiyani tashkil etadi.

Jinoyat-ijroiya huquqida postpenitensiar tizim, resotsializatsiya tushunchalari mavjud bo'lishiga qaramasdan, hali hech bir normativ-huquqiy hujjatda yoki jinoyat-ijroiya kodeksida mazkur tushunchalarning aniq bir ta'rifi ishlab chiqilmagan.

Postpenitensiar resotsializatsiya jazoni o'tab chiqqan mahkumlarni qayta ishtimoiylashtirishning eng muhim bosqichidir. Ushbu bosqichda sobiq mahkumlar huquqlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ular tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish, ularda qonunga itoatkor xulq-atvorni, inson, mehnat va ijtimoiy turmush qoidalari hamda an'analariga hurmat munosabatini shakllantirish, shuningdek jamiyatdagi ijtimoiy mavqeiga, muayyan muhitga xos bo'lgan nuqtai nazarlariga, normal yashash imkonini beradigan ko'nikmalarga ega bo'lish bosqichidir. Bundan tashqari, mazkur bosqich tegishli davlat organlari va muassasalarining ozodlikdan mahrum etilishi natijasida sobiq mahkumlar oldida vujudga keladigan bir qancha muammolar: ishga joylashish, uy-joy muammosi, oila a'zolari va yaqinlari bilan ijtimoiy aloqalarni qayta tiklash kabi muammolarni hal etishga ko'maklashish faoliyatini ham o'z ichiga oladi.

Postpenitensiar resotsializatsiya ikki qismga ega: **“postpenitensiar”** va **“resotsializatsiya”**. Umumiy tushunchani tushunishdan oldin, uning shaxsiy tarkibiy qismlarining mazmunini tushunish mantiqan to'g'ri bo'ladi.

“Resotsializatsiya” (qayta ijtimoiylashuv) atamasi sotsiologiya, pedagogika, psixologiya, shuningdek huquqshunoslikning jinoyat-ijroiya sohasiga nisbatan qo'llaniladi, bu uning ko'p komponentli mazmunini anglatadi. Resotsializatsiya jamiyatga integratsiyalashuv jarayoni bo'lib, turli xil chora-tadbirlar va usullardan iborat. Uning vazifasi har bir shaxsni jamiyat tomonidan tasdiqlangan normalar, yurish-turish qoidalari hamda qadriyatlarga hurmat ruhida qayta tarbiyalashdir.

Y.M.Antonyanning ta'kidlashicha, resotsializatsiya yangi sharoitlarga moslashish, yangi hayotda faol ishtirok etish, yangi rollarni, maqomni va funktsiyalarni tiklash yoki ularga erishish jarayonidir [3, B.27-38]. I.I.Karpets esa, ozodlikdan mahrum qilish joylarida jazoni ijro etish va o'tashning butun tartibi mahkumlarni tuzatish va qayta o'qitishga yo'naltirilganligini, shuningdek jazoni ijro etish muassasasidan ozod qilingan mahkumlar ijtimoiy hayotga, yangi sharoitlarga va odatlarga moslashish, ijtimoiy foydali aloqalarni tiklash, yangi ijtimoiy rollarni tanlash, ish yuritish

masalalarini hal qilish, oilaviy munosabatlarni o'rnatish, ishlab chiqarish munosabatlarini normallashtirish uchun haqiqiy yordamga muhtoj ekanliklarini ta'kidlaydi [4, B.17].

Jinoyat-ijroiya huquqida resotsializatsiya jazoni ijro etish muassasasida bo'lgan yoki jazoni o'tab chiqqan shaxslarning jamiyatga qaytishi jarayonini anglatadi hamda qamoqxonada bo'lish natijasida shaxslar oldida mavjud bo'lmagan erkinliklarni tiklashni o'z ichiga oladi. Ozodlikdan mahrum qilingan mahkumlarni resotsializatsiya qilish – bu har bir mahkumning qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik, tibbiy, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlarning murakkab kompleksiga asoslangan uzoq jarayon bo'lib, jazoni o'tashdan keyin jamiyatning oddiy sharoitlariga qo'shilishga tayyorlashdir [5, B.26]. Bir so'z bilan aytganda, M.S.Ribak ta'kidlaganidek, “resotsializatsiya – jinoyatchini qonunga itoatkor inson (fuqaro)ga aylantirishga qaratilgan izchil jarayon” [6, B.18] dir.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ko'plab xorijiy mamlakatlar qonunchiligida resotsializatsiya atamasiga aniq ta'rif berib o'tilgan. Jumladan, Rossiya Federatsiyasining **“Rossiya Federatsiyasida huquqbuzarliklarning oldini olish tizimining asoslari to'g'risida”**gi 2016-yil 23-iyunda qabul qilingan 182-FQ-sonli federal qonuni resotsializatsiya tushunchasini ochib bergan. Qonunning 25-moddasiga ko'ra, “Resotsializatsiya – huquqbuzarliklarning oldini olish subyektlari tomonidan ularning vakolatlariga muvofiq amalga oshiriladigan ijtimoiy-iqtisodiy, pedagogik, huquqiy xarakterdagi chora-tadbirlar majmuasi va jinoyatchilikning oldini olish bilan shug'ullanadigan shaxslar tomonidan ozodlikdan mahrum qilish va (yoki) boshqa jinoiy-huquqiy choralarda qo'llanilgan shaxslarni jamiyatga reintegratsiya qilish maqsadida amalga oshiriladi” [7].

Shuni esda tutish kerakki, resotsializatsiya oddiy jarayon emas. Chunki bu jarayonda shaxs birinchi navbatda o'zini, bundan tashqari tashqi dunyoga, jamiyatda bo'layotgan ijtimoiy hodisalarga bo'lgan nuqtai nazarini o'zgartirishi lozim bo'ladi. Odatda, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan va jamiyatga qaytgan shaxslarning shaxsiy fazilatlarini ko'pincha salbiy tomonga o'zgaradi. Ularning ko'pchiligi kasbiy ko'nikmalarini, oilaviy aloqalarni yo'qotadi, jinoiy tajriba bilan boyitiladi va nihoyat yangi jinoyatlarni sodir etishga ko'proq moyil bo'ladi. Bunday muammolarning mavjudligi, birinchi navbatda, takroran jinoyat sodir etilishi holatidan dalolat beradi.

Bu haqida M.S.Ribak shunday degan edi: “qamoqxonada aslida jamiyat ichida jamiyatdir, ya'ni qamoqxonada mutlaqo boshqa ijtimoiy ko'rsatmalar va madaniy me'yorlar mavjud. Natijada, tashqi dunyoga qaytish oson ish emas, chunki inson tashqarida, jamiyatda qanday yashash kerakligi bilan yana tanishishi kerak. Shuning uchun qamoqdan chiqqan odamlar odatda bu o'zgarishlarga moslashish uchun qamoqxonadan oldingi hayotga qaytishni istaydilar. Biroq, bu hayot tarzi tufayli ular birinchi navbatda qamoqxonaga jo'natiladi. Shuning uchun resotsializatsiya jarayoni oddiy emas. Bu murakkab va qiyin bo'lgan muhim ongli hayot tarzi o'zgarishlarini o'z ichiga oladi” [6, B.20].

Ushbu mulohazalardan kelib chiqib, “resotsializatsiya” atamasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: “Resotsializatsiya – huquqbuzarliklarning oldini olish subyektlari tomonidan ularning vakolatlariga muvofiq mahkumlar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish, ularda qonunga itoatkor xulq-atvorni, inson, mehnat va ijtimoiy turmush qoidalari hamda an'alariga hurmat munosabatini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, pedagogik-psixologik, huquqiy xarakterdagi chora-tadbirlar majmuasidir”.

Postpenitensiar resotsializatsiya atamasining yana bir tarkibiy qismi hisoblangan postpenitensiar tushunchasining mazmuni nima?

Jinoyat-ijroiya huquqida penitensiar hamda postpenitensiar tizimlari mavjud bo'lib, “postpenitensiar” tushunchasi “penitensiar” (lot. poenitentia – jazo bilan bog'liq) tushunchasidan kelib chiqqan [8, B.15].

Penitensiar tizim mahkumlarning sud tomonidan belgilangan tartibda tayinlangan jazoni o'tash bosqichini o'z ichiga olib, mazkur bosqichda jazoni ijro etuvchi tegishli davlat organlari va muassasalari jazodan ko'zlangan maqsadga erishishga qaratilgan mahkumlarni axloqan tuzatish va ijtimoiy hayotga qayta moslashtirish bilan bog'liq faoliyatini amalga oshiradi. Penitensiar tizim bo'yicha ko'plab olimlar o'z yondashuvlarini bayon etishgan, jumladan N.S.Salayev penitensiar tizimga quyidagicha ta'rif bergan: “Penitensiar tizim – jinoiy jazolar va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralarni ijro etuvchi davlat organlari va muassasalarining mahkumlarning axloqan tuzalishi va

qayta ijtimoiylashuviga qaratilgan tarbiyaviy-axloqiy, pedagogik-psixologik, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa faoliyat yo‘nalishlarini o‘z ichiga qamrab olgan tizim”dir [9, B.16].

Postpenitensiar tizim esa penitensiar tizimdan keyingi bosqich bo‘lib, mazkur bosqich jazoni o‘tab chiqqan mahkumlarni ijtimoiy hayotga moslashtirish, ozodlikdan mahrum etilishi natijasida ularning oldilarida paydo bo‘lgan muammolarni bartaraf etishga ko‘maklashish, ularning xulq-atvorini nazorat qilish bilan bog‘liq bo‘lgan tegishli davlat organlari va muassasalarining umumiy faoliyatini o‘z ichiga oladi. Ushbu tizim orqali, avvalo, sobiq mahkumlarning ijtimoiy himoyasi bilan bog‘liq masalalar ko‘rib chiqiladi, ya‘ni ularning tashqi dunyoga munosabati hamda atrofda qilarning ularga bo‘lgan munosabati o‘rganiladi. Zarurat tug‘ilganida esa, psixologik yordam ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, ularning sog‘lig‘i masalasiga ham alohida e‘tibor qaratiladi, tegishli davlat organlari va muassasalari tomonidan ularning sog‘lig‘i holatini tiklash bo‘yicha zarur bo‘lgan yordam ko‘rsatiladi. Keyingi navbatda, ularning ishga joylashish, turar joy bilan hamda identifikatsiya hujjatlarini olish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarini bartaraf etish kabi ishlar amalga oshiriladi. Shu bilan bir qatorda, ichki ishlar organlari tomonidan ularning xulq-atvorini nazorat qilish, qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish bilan bog‘liq profilaktik ishlar amalga oshiriladi. Jazoni o‘tab chiqqan mahkumlarni qayta ijtimoiylashtirishga qaratilgan mazkur chora-tadbirlarning jami postpenitensiar tizimni tashkil etadi.

Yuqoridagilarga asosanib, postpenitensiar tizimga quyidagicha ta‘rif berish mumkin: “Postpenitensiar tizim – huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi tegishli davlat organlari va muassasalari tomonidan ozodlikdan mahrum qilish joylaridan ozod etilgan shaxslarning axloqan tuzalishi va qayta ijtimoiylashuviga qaratilgan tarbiyaviy-axloqiy, pedagogik-psixologik, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa faoliyat yo‘nalishlarini o‘z ichiga qamrab olgan tizimdir”.

Bugungi kunda O‘zbekistonda sobiq mahkumlarning qayta ijtimoiylashuvini murakkablashtiradigan quyidagi muammolar mavjud: ijtimoiy va oilaviy munosabatlarning parchalanishi; yashash joylari, ish joylari, identifikatsiya hujjatlari yo‘qligi; nogironlik, ijtimoiy xavfli kasalliklar mavjudligi. Jazoni ijro etish muassasalari hamda tegishli reabilitatsiya markazlari tomonidan mahkumlarni ijtimoiy moslashtirishga qaratilgan ishlar amalga oshirilishiga qaramasdan, sobiq mahkumlar jazoni o‘tab chiqqach ish topish, uy-joy muammosini hal qilish, identifikatsiya hujjatlarini tiklash kabi ko‘plab muammolarga duch keladilar.

Sobiq mahkumlar uchun uy-joyga ega bo‘lish zarurati bosh va asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Uy-joy – bu jazoni ijro etish muassasalaridan ozod bo‘lganlar uchun hayot tarzini qayta tiklash, qayta boshlash uchun joydir. Agar koloniyadan ozod qilingan shaxslarning yaqinlari, qarindoshlari, uy-joylari bo‘lmasa, mazkur shaxslar vaqtinchalik yashash joylariga joylashtirilishi lozim. Mahkumlarda yashash joyining bo‘lmasligi, ular tomonidan takroran jinoyat sodir etilishi xavfini oshiradi. Psixologlar nuqtai nazaridan, agar ozodlikdan mahrum etilgan joylardan ozod qilinganlar doimiy yashash joyiga ega bo‘lmasa yoki muntazam ravishda yashash joyini o‘zgartirsa, bu ijtimoiy moslashuv jarayonini qoniqarsiz amalga oshirilishiga olib kelishi mumkin. Mahkumning uyi borligi muhim ahamiyatga ega. Ozod qilinganidan keyin, hukm qilinishidan oldingi yashash joyiga qaytish imkoniyati bunday shaxslarning takroran jinoyat sodir etish xavfini kamaytirish uchun juda yaxshi shart bo‘lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, mahkumning doimiy yashash joyining yo‘qligi kabi bunday jinoyat omilini bartaraf etishga qaratilgan samarali choralar ko‘rish masalasining dolzarbligi har yili o‘sib borayotganini ta‘kidlash kerak, shuni tushunish kerakki, bunday yordam hukumat darajasida ko‘rib chiqilishi va barcha muhtojlarni yashash joy bilan ta‘minlash asoslari qonuniy ravishda belgilanishi kerak.

Yana bir muhim masala – ozodlikdan mahrum qilish joylarida jazoni o‘tayotgan shaxslarni ishga joylashtirishdir. Sobiq mahkumlar ish bilan ta‘minlanishining ko‘rsatkichi juda ham past, ularda mustaqil ish qidirish qobiliyati yo‘q. Ko‘plab mahkumlar ish bilan band bo‘lishga urinishmaydi, ish joyini bandlikka ko‘maklashish markazlari orqali topishga harakat qilishadi yoki umuman ishlashga umid ham qilmaydilar. Buning bir qator sabablari bor: **kasbiy tayyorgarlikning past darajasi** yoki umuman **malakaning yetishmasligi** hamda **mehnat bozoridagi raqobat**.

Mahkumlarni ishga joylashtirish muammosi uzoq vaqt davomida mavjud bo‘lib, penitensiar davrda mahkumlarni o‘qitish, shu jumladan, kasb-hunarga o‘rgatish uchun sharoit yaratish kerak.

Chunki ish beruvchilar sobiq mahkumlarni ishga qabul qilish masalasida ko‘pincha salbiy qaror qabul qilishga moyil bo‘lib, sobiq mahkumlar sudlanganligi, uzoq vaqt ishlamaganligi va ish tajribasiga ega emasligini ta’kidlaydilar. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida ko‘ra, ishga qabul qilishni asossiz rad etish taqiqlanadi. Barcha fuqarolar mehnat huquqlariga ega bo‘lish va ulardan foydalanishda teng imkoniyatlarga egadir. Jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati va mansab mavqei, dinga bo‘lgan munosabati, e’tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek, xodimlarning ishchanlik qobiliyatlariga va ular mehnatining natijalariga aloqador bo‘lmagan boshqa jihatlarga qarab mehnatga oid munosabatlar sohasida har qanday cheklashga yoki imtiyozlar belgilashga yo‘l qo‘yilmaydi va bular kamsitish deb hisoblanadi [10]. Boshqacha aytganda, jazoni o‘tab chiqqan mahkumlarni ushbu asos bilan ishga qabul qilishni rad etish mumkin emas [11-15]. Shuning uchun, sobiq mahkumlar uchun ish o‘rinlari ajratish va ularni ishga joylashtirish masalasi ko‘rib chiqilishi kerak. Ish bilan ta’minlash masalasi mahkumlarning aksariyati uchun og‘riqli.

Bundan tashqari, amaldagi jinoyat-ijroiya tizimi xodimlarining haqiqiy imkoniyatlari ularni takroran jinoyat sodir etilishining oldini olish maqsadida ozodlikdan mahrum etilgan joylardan ozod etilganlarga aniq maqsadga muvofiq yordam ko‘rsatishga imkon bermaydi. Davlat muassasalari, jamoatchilik organlari va institutlarining ushbu toifadagi fuqarolar erkinligida yuzaga keladigan muammolarni hal etishdagi faoliyati juda kam rivojlangan va muvofiqlashtirilmagan, shuningdek juda ham tarqoq.

Xulosa qilib aytganda, mahkumlarning uy-joy masalasini hal qilish, ishga joylashtirish kabi asosiy muammolarni hal qilmasdan mahkumlar resotsializatsiyasini samarali amalga oshirib bo‘lmaydi. Shuning uchun bizning fikrimizcha, ozodlikdan mahrum qilish joylarida jazoni o‘tab bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarini ajratish va taqsimlash vazifasini, shuningdek uy-joysiz shaxslarga huquqiy, tibbiy yordam ko‘rsatish, hujjatlarni rasmiylashtirish uchun zarur bo‘lgan, boshqacha qilib aytganda, respublika bo‘yicha postpenitensiar resotsializatsiyani amalga oshiruvchi yagona ijtimoiy moslashuv markazini tashkil etish lozim.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (Criminal Code of the Republic of Uzbekistan) // <https://www.lex.uz/acts/111453>
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi (The Criminal Executive Code of the Republic of Uzbekistan) // <https://lex.uz/docs/-163629>
3. Антонян Ю.М. Взаимоействие личности преступника и социальной среды // Проблемы борьбы с рецидивной преступностью. (The interaction of the criminal’s personality and the social environment // Problems of combating recidivism) М., 1990.
4. Махмудов З.Ш. Постпенитенциарная адаптация: к вопросу о понятии. (Postpenitential adaptation: on the question of the concept.) – М., 2011.
5. Шапарь М.А. Постпенитенциарная адаптация: основные проблемы и способы их решения. (Postpenitential adaptation: the main problems and ways to solve them) – М., 2018.
6. Рыбак М.С. Ресоциализация осужденных к лишению свободы: проблемы теории и практики. Автореф. дисс ... док-ра юрид. наук. – Саратов. 2001. (Ribak M.C. Resocialization of persons sentenced to imprisonment: problems of theory and practice. Autoref. of DSc. disser. - Saratov, 2001).
7. Федеральный закон Российской Федерации от 23 июня 2016 года № 182 “Об основах системы профилактики правонарушений в Российской Федерации” (Federal Law of the Russian Federation On the basics of the system of prevention of violations in the Russian Federation) // http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_199976/
8. Махмудов З.Ш. Постпенитенциарная адаптация: к вопросу о понятии. – М., 2011. (Makhmudov Z.Sh. Postpenitential adaptation: on the question of the concept. - М., 2011)

9. Salaev N.S. Penitensiar tizimning profilaktik funksiyasi samaradorligini oshirish. Yuridik fanlar doktori dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent, 2017 (Salaev N.S. Increase the efficiency of the profilactic function of the penitentiary system. Autoref. of DSc. disser. Tashkent, 2017).
10. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (Labor Code of the Republic of Uzbekistan) // <https://lex.uz/docs/-142859>
11. Salaev, N. (2020) "Paradigm of forming a liberal penitentiary system – origins, trends and prospects," Review of law sciences: Vol. 4 : Iss. 1 , Article 19. DOI: 10.24412/2181-1148-2020-4-1-18 Available at: https://uzjournals.edu.uz/rev_law/vol4/iss1/19
12. Khamidov N. CRIMINAL-LEGAL ASPECTS OF THE DRUG ABUSE IN SOME COUNTRIES AND IMPOSED APPROACHES AGAINST IT //International Journal of Legal Studies (IJOLS). – 2018. – №. 4 (2). – С. 177-182.
13. Salaev N., Khamidov N. Qualification Of Smuggling: Uzbek Legislation And Foreign Experience //Ilkogretim Online. – 2021. – Т. 20. – №. 3. – С. 1661-1667.
14. Хамидов Нурмухаммад. "ПОНЯТИЕ ТРАНСНАЦИОНАЛЬНЫХ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И СОЦИАЛЬНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ УСТАНОВЛЕНИЯ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА НИХ" Review of law sciences, vol. 5, no. Спецвыпуск, 2020, pp. 118-127. (Khamidov Nurmukhammad. "The concept of transnational crimes and the social necessity of establishing responsibility for them" Review of law sciences, vol. 5, no. Special issue, 2020, pp. 118-127) doi:10.24412/2181-919X-2020-118-127
15. Salaev, N. (2017) "Differentiation, individualization, execution of criminal punishments and its goals: way to success," Review of law sciences: Vol. 1 : Iss. 1 , Article 25. Available at: https://uzjournals.edu.uz/rev_law/vol1/iss1/25

**ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ЖУРНАЛИ
6 ЖИЛД, 9 СОН**

**ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ
ИССЛЕДОВАНИЙ
ТОМ 6, НОМЕР 9**

**JOURNAL OF LAW
RESEARCH
VOLUME 6, ISSUE 9**

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000